



TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MEDIA KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Tengelbaeva Dinora Muratovna

Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya Maqolada ta'lim jarayonida raqamli platformalardan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi ahamiyati ortib borayotgan bir sharoitda, o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim jihatlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada raqamli platformalarning didaktik imkoniyatlari, media kompetentsiyani rivojlantirish strategiyalari hamda pedagogik va psixologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, media kompetentsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim metodikalarining samaradorligi aniqlanib, ularni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: media kompetentsiya, raqamli platformalar, raqamli pedagogika, ta'lim texnologiyalari, pedagogik-psixologik asoslar, interaktiv ta'lim, raqamli savodxonlik.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL BASIS OF THE METHODOLOGY OF DEVELOPING FUTURE TEACHERS' MEDIA COMPETENCE BASED ON THE USE OF DIGITAL PLATFORMS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract The article analyzes the pedagogical-psychological foundations of developing future teachers' media competence through the use of digital platforms in the educational process. In the context of the increasing importance of digital technologies in the education system, the formation of teachers' media competence is becoming one of the important aspects of the pedagogical process. This article considers the didactic capabilities of digital platforms, strategies for developing media competence, and pedagogical and psychological approaches. According to the results of the study, the effectiveness of educational methodologies aimed at developing media competence is determined and recommendations are given for their implementation in practice.

Keywords: media competence, digital platforms, digital pedagogy, educational technologies, pedagogical and psychological foundations, interactive education, digital literacy.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация В статье анализируются педагогические и психологические основы формирования медиакомпетентности будущих учителей посредством использования цифровых платформ в образовательном процессе. В условиях, когда возрастает значимость цифровых технологий в системе образования, формирование медиакомпетентности педагогов становится одним из важных аспектов педагогического процесса. В статье рассматриваются дидактический потенциал цифровых платформ, стратегии развития медиакомпетентности, педагогические и психологические подходы. По результатам исследования определена эффективность образовательных методик, направленных на развитие медиакомпетентности, и даны рекомендации по их внедрению в практику.

Ключевые слова: медиакомпетентность, цифровые платформы, цифровая педагогика, образовательные технологии, педагогические и психологические основы, интерактивное образование, цифровая грамотность.

KIRISH

XXI asrda ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. O'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasini rivojlantirish, ayniqsa, media kompetentsiyani shakllantirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchilar ta'lim jarayonida nafaqat an'anaviy dars usullaridan, balki raqamli texnologiyalar va media resurslardan samarali foydalanish malakasiga ham ega bo'lishlari lozim. Chunki bu, o'z navbatida, o'quvchilarning ta'lim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularning bilim olish samaradorligini kuchaytirishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun media kompetentsiyani rivojlantirish jarayonida interaktiv vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada raqamli platformalarning ta'lim jarayoniga ta'siri, bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini rivojlantirish metodlari va pedagogik-psixologik asoslarining tahlili beriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Lev Semyonovich Vygotskiy o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayonida ijtimoiy va texnologik muhitning muhimligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, yangi bilimlar insonning kognitiv rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi va media texnologiyalar ushbu jarayonni tezlashtirishi mumkin [1].

Albert Bandura esa, ijtimoiy o'rganish nazariyasiga asoslanib, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot va taqlid qilish mexanizmlari orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu tamoyil media resurslar orqali o'qitishning samaradorligini tasdiqlaydi [2].

Jon Dyui o‘zining tajriba asosidagi ta’lim konsepsiyasida amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv vositalarning ahamiyatiga urg‘u bergan. Uning fikriga ko‘ra, media texnologiyalar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning bilimlarni amaliy qo‘llashiga yordam beradi [3].

Raqamli texnologiyalar va platformalar ta’limni individualizatsiya qilish, moslashuvchan o‘quv jarayoni yaratish va real vaqt rejimida ta’lim samaradorligini baholash imkonini beradi. UNESCO ta’lim tashkiloti ta’kidlaganidek, raqamli ta’lim vositalari global ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi [4].

G. Siemensning “Konnektivizm” nazariyasiga ko‘ra, ta’lim jarayonida texnologiyalar va internet resurslaridan foydalanish bilim almashinuvi va tarmoq orqali o‘qitish samaradorligini oshiradi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi kunda kompyuterlar, ularning tarmoq va tizimlari, ulkan hajmdagi axborot resurslaridan oqilona foydalanishda, ayniqsa, axborot madaniyati fenomenining global ahamiyatini anglash talab etiladi. Axborot madaniyati fenomeni axborotlashtirish asriga o‘tishning universal ijtimoiy muhim kategoriyasi sifatida xizmat qiladi. Texnika va texnologiyaning rivojlanishi, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi, o‘z navbatida, jamiyatning axborot madaniyatiga ega bo‘lishi – bu har bir insonning o‘zligini anglashida, sotsiumdagi o‘rni va vazifasini bilishida katta ahamiyatga egadir. Ta’lim axborot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Binobarin, ta’lim olish tizimining rivojlanishi va unda har bir individning samarali tarzda axborotga ega bo‘lishi hamda undan maqsadli foydalana bilishi jamiyatning yuksalishiga xizmat qiladi.

Taraqqiy etgan davlatlarda axborot madaniyati (infoetika, mediaetika, mediata’lim va hokazo) alohida fan, alohida muammo, alohida pedagogika, alohida siyosat darajasiga chiqqan bo‘lib, ilmiy markazlar, olim va mutaxassislar ushbu muammolar atrofida ixtisoslashgan holda, yuz berayotgan xolatni o‘rganib, tahliliy asarlar yaratishmoqda.

Axborot jamiyati paydo bo‘lishi bilan odamlar hayotiga yangi atamalar va tushunchalar tezda kirib keldi. Axborot jamiyati aholining axborot ehtiyojlari to‘liq qondirilishi bilan tavsiflanadi. Yu.Ocheret: «Jamiytdagi birorta rivojlanishni axborot madaniyatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, axborot vositalari texnik-ta’minot imkoniyatlarining kengayishi bilan hayotning har bir sohasida axborot madaniyatining roli va o‘rni oshdi», deb ta’kidlagan.

Bugungi kunda zamonaviy oliy ta’limning vazifasi – bitiruvchi talabalarga ommaviy axborot vositalarining ishlashi, ularning mazmunini to‘g‘ri baholash qobiliyati, o‘sib borayotgan axborot oqimlaridan eng muhimlarini mustaqil ravishda tanlash qobiliyatiga yordam berish, ma’lumotni qayta ishlash va undan maqsadli foydalanish, shuningdek zararli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni «filtrlash» dan iborat.

Bo‘ljak mutaxassislarning mediakompetentligi uning mediamatnlar yaratish, media sohada o‘z ijodiy salohiyatini amalga oshirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Shuni inobatga olgan holda, kompetentlik yondashuvning ma’lum toifalariga ko‘rib chiqilgan turlicha yondashuvlar asosida xulosa qilish mumkinki, «kompetensiya», «kompetentlik», «mediakompetentlik» tushunchalari zamonaviy ta’lim va fan uchun muhimdir. Ushbu tushunchalarga turli soha olimlari va pedagoglar tadqiqot ishning kelgusida rivojlanish istiqbollari yoshlarning kasbiy salohiyatini oshirishda muhim sanaladi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – media kompetentsiyani rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or pedagogik va psixologik konsepsiyalar o‘rganildi.

Eksperimental tahlil – bo‘lajak o‘qituvchilarga raqamli platformalar orqali dars o‘tish bo‘yicha trening tashkil qilinib, natijalari tahlil qilindi.

Sotsiologik so‘rov – pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning media kompetentsiya darajasi baholandi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, media kompetentsiyani rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ekani aniqlandi:

Interaktiv platformalarning o‘rni – Zoom, Google Classroom, Moodle kabi vositalar o‘quvchilarning bilimlarini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Media savodxonlik darajasining o‘sishi – talabalar media resurslarni tahlil qilish va baholash qobiliyatiga ega bo‘la boshladi.

Ta’lim samaradorligi oshishi – raqamli vositalardan foydalangan talabalar an’anaviy darslarga nisbatan 25% ko‘proq bilim olishga muvaffaq bo‘ldi.

1-jadval. Bo‘lajak o‘qituvchilarning media kompetentsiya darajasining o‘zgarishi

Ko‘rsatkich	Tadqiqot boshida (%)	Tadqiqot oxirida (%)
Media texnologiyalarni bilish	45	85
Interaktiv vositalardan foydalanish qobiliyati	50	90
Media kontentni tahlil qilish	40	80
Raqamli resurslarni samarali qo‘llash	55	88

XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va media resurslardan samarali foydalanish o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda. O‘quvchilarga zamonaviy axborot muhitida sifatli ta’lim berish, ularda tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va tahlil qilish, shuningdek, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning media kompetentsiyasini rivojlantirishga bog‘liq. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, media texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘qituvchilar uchun ham, o‘quvchilar uchun ham bir qator afzalliklarni taqdim etadi.

1. Media kompetentsiyaning ta’lim jarayonidagi roli va ahamiyati
Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, media kompetentsiya nafaqat axborotni qabul qilish va uzatish jarayonida, balki uning sifatini tahlil qilish va kerakli xulosalar chiqarishda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar media resurslaridan foydalanish orqali dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishlari mumkin. Media texnologiyalar interaktiv ta’lim muhitini shakllantirishga, individual yondashuvni kuchaytirishga va o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish faoliyatini rag‘batlantirishga imkon beradi.

2. Raqamli platformalarning bo‘lajak o‘qituvchilar media kompetentsiyasini shakllantirishdagi o‘rni
Raqamli platformalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi jihatlar e’tiborga olinishi lozim:

Interaktiv o‘quv jarayoni – raqamli texnologiyalar orqali o‘qitish o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirishga xizmat qiladi.

Axborotlarni tezkor qabul qilish va qayta ishlash – talabalar media texnologiyalar orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va saralash qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Raqamli savodxonlikni rivojlantirish – bo‘lajak o‘qituvchilarning media vositalarini tushunish, ulardan samarali foydalanish va axborotni tahlil qilish bo‘yicha qobiliyatlari ortadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlik – raqamli texnologiyalar an’anaviy pedagogik metodlarni takomillashtirish va diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

3. Media texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish
Raqamli platformalar yordamida o‘qituvchilarning media kompetentsiyasini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, media savodxonlik darajasi ortgan sari o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlari ham oshadi. Ayniqsa, video darsliklar, interaktiv topshiriqlar, raqamli laboratoriyalar va masofaviy ta’lim tizimlarining qo‘llanilishi o‘qitish samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, media kompetentsiyasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilarning darslarini o‘quvchilar 25% ga samaraliroq deb baholashgan.

4. Media kompetentsiyani rivojlantirish bo‘yicha takliflar
Bo‘lajak o‘qituvchilarni media kompetentsiyasini shakllantirishda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

Media pedagogik treninglar va maxsus kurslarni tashkil etish – o‘qituvchilarga media texnologiyalar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, ularga innovatsion pedagogik usullarni o‘rgatish.

Ta’lim tizimida raqamli resurslarni keng joriy etish – o‘quv jarayoniga zamonaviy elektron darsliklar, interaktiv videolar, virtual laboratoriyalar va boshqa innovatsion vositalarni kiritish.

O‘qituvchilarning raqamli platformalar bilan ishlashini rag‘batlantirish – pedagoglarning media savodxonligi darajasini oshirish uchun ularni sertifikatlash va mukofotlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish – pedagogik oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejalariga media kompetentsiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus modullarni kiritish.

Ilmiy va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish – media texnologiyalarni ta’limda qo‘llash natijalari va ta’sirini doimiy monitoring qilish, ilg‘or yondashuvlarni ishlab chiqish.

5. Kelgusidagi istiqbollar

Kelajakda media kompetentsiyani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Xususan, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi, sun‘iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim metodikalarini ishlab chiqish va raqamli media vositalarining o‘quvchilarning psixologik rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vygotsky, L.S. (1985). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
2. Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Prentice Hall.
3. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. Kappa Delta Pi.
4. UNESCO. (2021). *Digital Learning for Sustainable Development*. UNESCO Publishing.
5. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*.
6. Prensky, M. (2010). *Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning*. Corwin Press.
7. McLuhan, M. (1964). *Understanding Media: The Extensions of Man*. MIT Press.
8. Warschauer, M. (2007). *Technology and Language Education: Past, Present, and Future*. *Language Teaching Research*.
9. Selwyn, N. (2011). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. Bloomsbury Publishing.
10. Mayer, R. E. (2020). *Multimedia Learning*. Cambridge University Press.